

BO'LAJAK MATEMATIKA FANI O'QITUVCHILARIGA MATEMATIKADAN XALQARO BAXOLASH TIZIMLARI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN

Abdullayeva Mahmudaxon Akmaljon qizi

Ergasheva Mubinaxon Izzatulla qizi

Qo'qon Davlat Unversiteti Aniq fanlar va Muhandislik fakultiteti 1-kurs talabalari

O'qituvchi: P.f.f.d Abdullayeva M

abdullayevamarifatxon5@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekiston talim tizimini dunyoning rivojlangan davlatlari bilan solishtirish maqsadida pisa va timss kabi xalqaro baxolash dasturlarida ishtirok etmoqda.ushbu dasturga tegishli masalalarni maktab o'quvchilari bilan ishlash ularning dunyo qarashlarini kengaytiradi. Eng asosiysi, bolalar matematikani hayotiy muammolar bilan bog'lashni o'rganishadi. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun, avvalo, bo'lajak matematika o'qituvchilarining o'zlari bilimlarni real hayotda qo'llash metodikasiga ega bo'lishlari kerak. Shuning uchun ham bo'lajak matematika o'qituvchilariga bu fanni yangicha,interfaol usullarda o'rgatish bugungi kunda juda dolzarb bo'lib qoldi. Maqolada "Matematikadan halqaro baholash tizimlari" darslarida qollash mumkin bo'lgan interfaol usullar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *PISA, TIMSS, matematik savodxonlik, interfaol usullar, bo'lajak matematika o'qituvchisi, hayotiy ko'nikmalar.*

Kirish.Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Xalqaro baholash dasturlariga oid masalalar asosan uzun matnli hamda 2, 3 qismdan iborat bo'ladi. Bu esa o'quvchida bir qancha muammolar tug'dirishi mumkin. Masalan; masala matnining oxirgi qismini o'qib tugatgunicha bosh qismidagi ma'lumotlar esdan chiqib qoladi va h.k.

O'rgatish jarayonida o'quvchilarda shunday qiyinchiliklar yuzaga kelmasligi uchun eng yaxshi interfaol usul sifatida jamoaviy ishlashni olsak bo'ladi. Bu usul o'quvchilarga quyidagi afzalliklarni beradi:

-Jamoaviy ishlash jarayonida o'quvchilar masalani qismlarga bo'lib tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- PISA tadqiqotlaridagi masalalar uzun matnli, shu bilan birga ma’lumotlar ko‘p bo‘lganligi sababli bir o‘quvchi e’tibordan qoldirgan detalni boshqa bir sherigi payqaydi. Natijada masalani noto‘g‘ri tushunish xavfi kamayadi.

- O‘quvchilar masalani yechish usulini o‘zaro muhokama qilib, o‘z fikrlarini boshqalarga tushuntirishga harakat qiladilar. Bu esa ularga mavzuni yanada chuqurroq tushunishlarida yordam beradi. R. Ishmuhamedov ta’kidlaganidek, guruhdagi intellektual hamkorlik "bir kalla — yaxshi, ikki kalla — undan ham yaxshi" tamoyili asosida samaradorlikni 2-3 barobarga oshiradi.

Fikrlarimizning isboti sifatida, PISA tadqiqotlarida uchraydigan quyidagi hayotiy masalani ko‘rib chiqamiz: "Onlayn do‘kon va yetkazib berish"

Siz onlayn do‘kondan kitob buyurtma qilmoqchisiz. Do‘konning narx siyosati quyidagicha: Har bir kitobning narxi: 45 000 so‘m.

Yetkazib berish xizmati: 20 000 so‘m.

Maxsus taklif: Agar umumiy xarid summasi (kitoblar narxi) 200 000 so‘mdan oshsa, yetkazib berish bepul amalga oshiriladi.

1-savol: Siz 4 ta kitob buyurtma qildingiz. To‘lov uchun jami qancha mablag' (so‘mda) kerak bo‘ladi?

2-savol: Sizning do‘stingiz 5 ta kitob sotib olmoqchi. U jami qancha pul to‘laydi? (Diqqat qiling: 200 000 so‘mlik cheklovga e’tibor bering).

3-savol: Matematik nuqtai nazardan, 4 ta kitob sotib olgan foydalimi yoki 5 ta?

1-savol yechimi: Kitoblar narxi: $4 \times 45\,000 = 180\,000$ so‘m.

Yetkazib berish: $180\,000$ so‘m $<$ $200\,000$ so‘m bo‘lgani uchun yetkazib berish pullik - $20\,000$ so‘m. Jami: $180\,000 + 20\,000 = 200\,000$ so‘m.

2 - savol yechimi: 5 ta kitob uchun to‘lov 1) Kitoblar narxini hisoblash. Kitoblar soni 5 ta, har birining narxi 45 000 so‘m.

$5 \times 45\,000 = 225\,000$ so‘m

2) Yetkazib berish narxini tekshirish:

Umumiy kitoblar narxi ($225\,000$ so‘m) $200\,000$ so‘mdan oshgani uchun yetkazib berish tekin bo‘ladi.

Javob: Jami $225\,000$ so‘m to‘laydi.

Natijalarni solishtirish:

1-savolga ko‘ra, 4 ta kitob uchun jami $200\,000$ so‘m to‘lanadi. 2-savolga ko‘ra, 5 ta kitob uchun jami $225\,000$ so‘m to‘lanadi.

Xulosa: Faqat $25\,000$ so‘m qo‘shimcha to‘lab, yana bitta kitob sotib olish mumkin.

Javob : 5 ta kitob sotib olish foydaliroq, chunki yetkazib berish bepul bo‘ladi va kitob soni ko‘proq bo‘ladi.

Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, masala nafaqat hisob-kitobni, balki mantiqiy mushohadani ham talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi bunday vaziyatlarda o‘quvchilarga tayyor javobni aytmasdan, ularni jamoaviy muhokamaga yo‘naltirishi kerak. Bu esa o‘qituvchidan ham xalqaro baholash standartlarini, ham interfaol metodikani chuqur bilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mullis I. TIMSS Assessment Frameworks.
2. Jo‘rayev R.H. Ta’lim jarayonida baholash va monitoring masalalari. Toshkent.